



## ART PEDAGOGIKASI TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH ASOSIDA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINING IJODKORLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

MIRZAYEVA DILFUZA SHAVKATOVNA

Buxoro davlat universiteti maktabgacha ta'lif kafedrasidagi dotsenti

**Annotatsiya:** Maqolada maktabgacha ta'lifning sifatini oshirish va sohaga oid yangicha qarashlar va ta'lif-tarbiya jarayoniga zamonaviy innovatsiyalarni, yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini, ilg'or usullarni joriy etish, bolalar ijodkorligini rivojlantrishda ART pedagogikasi vositalaridan foydalanish maqsadi, vazifalari va o'ziga xos jihatlari, ART pedagogikasining asosiy texnologiyalari, ijodiy o'yin mashqlari va amaliy jarayonga asoslangan mashg'ulotlarni tashkil etishda tarbiyachiga qo'yilgan pedagogik talablar haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ART pedagogika, o'z-o'zini anglash, ijodiy faoliyat, ijodkorlik, ijodiy fikrlash, faol ijodiy harakat, ijodiy tasavvur, fikrlash, badiiy ijodiy faoliyat, mahorat, uzbeklik, uzuksizlik.

**Аннотация:** В статье рассматриваются цели, задачи и специфические аспекты повышения качества дошкольного образования и внедрения новых отраслевых взглядов и современных инноваций в учебно - воспитательный процесс, новых педагогических и информационно-коммуникационных технологий, передовых методов, использования средств арт-педагогики в развитии детского творчества, основные технологии арт-педагогики, организация творческих игровых упражнений и практических занятий на основе процесса педагогические требования к воспитателю.

**Ключевые слова:** Художественная педагогика, самосознание, творческая деятельность, креативность, творческое мышление, активное творческое движение, творческое воображение, мышление, художественно-творческая деятельность, мастерство, преемственность, преемственность.

**Annotation:** The article will talk about new views on the quality of preschool education and the field, and about modern innovations in the educational process, the introduction of new pedagogical and information and communication technologies, advanced methods, the purpose, tasks and specifics of using the means of art pedagogy in the development of children's creativity, basic technologies of ART pedagogy, creative game exercises and pedagogical requirements

**Keywords:** ART pedagogy, self-awareness, creative activity, creativity, creative thinking, active creative movement, creative imagination, thinking, artistic creative activity, skill, continuity, continuity.

Maktabgacha ta'lif tizimi o'quv tarbiya jarayonida bolalarni matab ta'limga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lif-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lif dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantrish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

-axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

-tanqidiy fikrlash texnologiyasi

-dizayn texnologiyasi

-muammoli ta'lif texnologiyasi

-o'yin texnologiyasi

-ijodiy ish texnologiyasi

-ijodiy ustaxonalar texnologiyasi;

-badiiy pedagogika vositalaridan foydalanish texnologiyasi;

-ART pedagogikasi vositalaridan foydalanish texnologiyasi kabilardan samarali foydalanish intensiv ravishda yo'nga qo'yilmoqda.

Zamon taraqqiyotga, rivojlanishga yuz tutgan sari ta'lim-tarbiya jarayonida samarali vosita bo'lib xizmat qiladigan omil, metod, vositalarini ham takomillashtirish talabi vujudga keldi. O'n yil oldingi 5 yoshli bola bilan hozirgi shu yoshdagi bolaning qiziqishi, harakati, erkaligi tubdan farq qiladi. Shu bois, ta'limning barcha bosqichlarida yangicha metodlar maydonga kelmoqda.

Ma'lumki, barkamol avlodni tarbiyalash, dastlab, oilada, so'ngra maktabgacha ta'lim muassasasida amalga oshiriladi. Bu an'ana mas'uliyat bilan davom ettirilishi lozim. Zamon talabidan kelib chiqib, millat jonkuyarlari zarur tadbirlarni izlab topadi, tizimga tatbiq etadi.


Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolaning eshitish xotirasidan ko'ra ko'z, tasavvur xotirasi kuchli bo'ladi. Shuni inobatga olib mashg'ulotlar o'yin, ko'rgazmali qurollar, multimedia-didaktika o'yinlaridan foydalanilgan holda tashkil etilsa, har bir bolada o'r ganishdagi rag'batning amaliy natijasi his etilib, axloqiy fazilatlari rivojlanadi, halollik,adolatlilik, qat'iyatlilik, erkin fikrlash, nutqining o'sishi va eng asosiysi, zamonaviy texnologiyalar bilan hamnafas bo'lib voyaga yetishiga zamin yaratiladi.

Didaktik o'yinlarga izoh beradigan bo'lsak, bolalar bilan maxsus ta'limiy o'yinlar shaklida mashq qilish usulida bolaning bilim doirasini rivojlantirishdir. Didaktik o'yinlar ham o'yin, ham ta'lim vositasi. Bunday o'yin jarayonida bola barcha aqliy jarayonlarni rivojlantiradi va individual xususiyatlarini shakllantiradi.

Multimedia-didaktika o'yinlaridan foydalangan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish jarayonini rivojlantirish bugun jahonda e'tirof etilayotgan eng samarali yo'llardan biri. Multimedia - zamonaviy texnik va dasturiy vositalardan foydalanish. U interaktiv dasturiy ta'minot boshqaruvi ostida o'zaro vizual va audio samara ta'siridan iborat bo'lib, u matn, tovush, grafika, foto, videoni raqamli taqdim etish usulida birlashtiradi.

Multimedia-didaktika o'yinlaridan foydalangan holda mashg'ulotlarni olib borishning yana bir afzalligi, bu kabi tashkil etilgan mashg'ulotda majburiy bilim berish bo'lmaydi. Bola bilimni ixtiyoriy qabul qiladi va bu orqali tarbiyachi ijobjiy natijaga erishadi. Multimedia-didaktika o'yinlaridan foydalanish bolaning maktabga ishonch va kelajakka oshiqish bilan qadam tashlashiga yordam beradi. Yillar elagidan o'tib kelayotgan oltin naql bugun ham qiyomatini oshirsa oshirkanki, zarracha kamaytirmagan. Chindan ham yoshlikda olingen bilim toshga o'yilgan naqsh kabi bebahodir.

Art pedagogikaning asosiy texnologiyasi bu o'yin va improvizatsiya (ijodkorlik, kreativlik), ana shu narsa ijtimoiy-madaniy pedagogika sohasida badiiy pedagogika texnologiyalardan foydalanishga asos bo'ladi (2.2-rasmga qarang)



**2.2-rasm. Art pedagogikasi vositasida bola ijodkorligini rivojlantiruvchi ko'nikmalar**

Pedagogik improvizatsiya - bu ichki yoki tashqi omillar ta'sirida yuzaga keladigan rejalshtirilmagan vaziyatlar tufayli tarbiyachining dastlabki kutilmagan harakatlari hisoblanib, improvizatsiya



muvafaqqiyati tarbiyachi tomonidan berilgan mashq va ijodiy topshiriq shakllarini to'g'ri loyihalash va taxminlash natijalarining istiqbollari bilan belgilanadi.

O'yin texnologiyasi - badiiy faoliyatni rag'batlantirish usuli bo'lib, u bolalarda beixtiyor yodlash jarayonlarini faollashtirish, ularning atrof-muhitga, turli xil badiiy faoliyatga qiziqishini oshirishning ajoyib vositasi sifatida xizmat qiladi.

Art pedagogikada faoliyat turlari:

Tasviriy faoliyat:

1. Loy ishi.

Art pedagogikada ishlatiladigan plastik materiallar: loy. Bolalar bilan mashg'ulot o'tishda loy plastik material sifatida tavsiya etiladi.

Birinchidan, gil tabiiy mahsulotdir, ya'ni u o'z-o'zidan terapevtik ta'sirga ega.

Ikkinchidan, loy plastik va egiluvchan bo'lib, bu maktabgacha yoshdagagi bolalar bilan ishlashda juda muhimdir.

Uchinchidan, mahsulotni quritishdan keyin bo'yash.

Ko'pincha, loy bilan ishlashda extiyotkor bo'lish kerak, har bir bola ham loy bilan ishlashni xohlamaydi.

Loy ishining turlari (shakllar va narsalarni yaratish)

Plastilin. Ranglari yorqin, ijobiy xususiyatga ega bo'lgan, ranglarni aralashtirish imkoniyatiga ega bo'lgan, plastik chizish texnikasida foydalanish (kartonga plastilinni yoyish, rasm yaratish). Uch o'lchovli kompozitsiyalarini yaratishda foydalanish, shuningdek, maktabgacha yoshdagagi bola uchun ushbu materialning "mashhurligi" omili. Salbiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi: materialning "sun'iyligi", uning zararli tarkibi (loyday plastik emas)

Plastilin bilan ishlash turlari:

- shakllar va obektlarni yaratish;
- tabiiy materiallardan foydalaniib obektlar yaratish;
- plastilin bilan chizish.

Xamir. Bizning fikrimizcha, xamir kabi plastik materialga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Odatda, sho'r va oddiy xamir bilan ishlash mumkin. Bu materialning xususiyati plastik, yumshoq va ekologik toza. Bolalar ushbu material bilan katta zavq bilan ishlaydilar.

Xamir shunchalik egiluvchanki, bolaning mayda motorikasi, mushaklari yaxshi rivojlanmagan bo'lsa ham, xamir bilan ishlashda bemalol o'ynaydilar, yangi shakllar yaratadilar. Xamirni har xil ranglar bilan ham bo'yab va uni pishirish mumkin.

Xamir bilan ishlash turlari:

- xamirga ishlov berish;
- shakllar va obektlarni yaratish (qoliplardan foydalanish);
- tabiiy materiallardan foydalangan holda predmetlar yaratish (kompozitsiyalar yaratish);
- xamirni bo'yash;
- xamirdan turli xil rasmlar yaratish.

Rasm chizish.

Chizish bolalarning hissiy rivojlanishiga katta hissa qo'shami, ularning samarali faoliyatining motivatsion - ehtiyoj tomonini shakllantiradi.

Rasm chizish xuddi o'yin kabi "kattalar orasida bolaning huquqlarini" qoplaydi. Bola o'zini va narsalarini boshqarishni xohlaydi, rasm o'yin kabi hech bo'limganda xayoliy ravishda amalga oshirishga imkon beradi. U qog'ozda faqat o'ziga tegishli va o'zining hayotini tasvirlaydi.

Art pedagogikada biz chizish jarayoni va natijaning quvonchini uyg'unlashtirishga harakat qilishimiz kerak.

Art pedagogikada rasm chizish texnikasi:

Ho'l qog'ozda rasm chizish. Qoidaga ko'ra, akvarelni maktabgacha yosh yoki mifik yoshida kiritish tavsiya qilinadi. Boshqa tomonidan, bolalar bo'yoqlarini aralashtirishni va o'zlarining tajribalarini o'tkazishni juda yaxshi ko'radilar. Buning uchun ho'l qog'ozda chizish texnikasi mos keladi.

Shishada chizish. Guash bilan ishslash to‘g‘ri keladi. Ushbu texnika bolani hayajon, o‘ziga ishonchszilik, ijtimoiy qo‘rquvni tuzatish uchun ishlataladi. Bolalarni faollashtiradi, tajribamizdan kelib shuni aytishimiz mumkinki, barcha maktabgacha yoshdagi bolalar shisha ustida rasm chizishga qiziqadi. Mualliflik yondashuvi assosida ART pedagogikasi vositasida maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi bolalari ijodkorligini rivojlantirish tushunchasining pedagogik mazmunini quyidagicha tasnif etdiq:

ART pedagogika → tarbiyachi → tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari → o‘z-o‘zini anglash → ijodiy faoliyat → ijodkorlik va ijodiy fikrlash, yasash, yaratish, bo‘yash, chizish, qurish → faol ijodiy harakat ko‘nikmalarini rivojlantirish → ijodiy tasavvur va fikrlash → badiiy ijodiy faoliyat → ijodkorlik va badiiy mahorat darajasini rivojlantirish→tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchisida ijodkorlikni rivojlantirishdagi uzviylik va uzuksizlikni ta‘minlashni, ular davomiyligi va ustuvorligini talab etadi.

Bizning fikrimizcha, ART pedagogikasi vositasida maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi bolalari ijodkorligini rivojlantirish samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan konsepsiya quyidagi to‘rtta asosiy negiz ustuvor o‘rin egallaydi:

- maktabgacha yoshdagi bolalar ijodkorligini rivojlantirishda xalqimizning milliy urf-odatlari, an’analari, ma’naviy merosiga tayanish;
- bolalarni ijodkorlikka undashda ularning qiziqishi, ehtiyoji, qobiliyatlarini e’tiborga olish;
- ularda san’atni sevish, undan ilhomlanish, zavq olishga yo‘naltirilgan ijodiy mashq va topshiriqlar bankini yaratish;
- maktabga tayyorlov guruhi bolalarining badiiy faoliyatini mediata’lim vositasi asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratish;

- ART pedagogikasi vositasi asosida tayyorlov guruhi bolalarining ijodiy imkoniyatlarini oshirishga yo‘naltirilgan tabiyatga sayohat va turli ekskursiyalarni tashkil etish;

Tadqiqotlarimiz davomida biz, ART pedagogikasi vositasida maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi bolalarida ijodkorlikni rivojlantirishning tarkibiy komponentlarini tahlil qilib chiqdik. Bu murakkab pedagogik jarayon bo‘lib, uni amalga oshirishda didaktika, tarbiya nazariyasi, ta’lim menejmentida olg‘a surilgan ilg‘or innovatsion g‘oyalarga tayangan holda ish ko‘rish talab etiladi. Ushbu jarayonda oila, ta’lim muassasalari ham faol ishtirok etishlari talab etiladi. Bu, albatta, birinchi navbatda, ta’lim jarayonidagi obektlarning individualligini hisobga olgan holda, tarbiyaviy ish mazmuni, shakl va metodlari, vositalarini tanlab olinishini taqozo etadi.

Kuzatuv va tahlillarimiz asosida aytishimiz mumkinki, maktabgacha yoshdagi tayyorlov guruhi bolalarining ijodkorligini rivojlantirining uzuksizligini ta‘minlashda ART pedagogikasi vositasidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Сергеева Наталя Юрьевна. Содержание понятия «Артпедагогика» //Известия Волгоградского государственного педагогического университета. 2008. № 1.
2. Jadanova, Lubov Afanasyevna Obucheniye jivopisi na plenere kak protsess razvitiya xudojestvenno-tvorcheskoy individualnosti studentov: Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchyonoy stepeni kandidata pedagogicheskix nauk. Sankt-Peterburg, 2006.
3. Тилавова М.М. “АРТ педагогика воситасида болалар ижодкорлигини ривожлантириш” ISSN 2181-1717 (E) Образование и инновационные исследования (2022 год №5)
4. М.Нурматова, Ш.Хасанова. Д.Азимова. Устахонада амалий машғулот. «Чўлпон». Т., 2010 й.
5. М.Нурматова, Ш.Хасанова. Расм, буюм ясаш ва тасвирий фаолият методикаси. «Мусиқа». Т., 2010
6. Internet saytlari www.